

TA'LIM OLISHDA ALOHIDA EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH (AUTIZM).

Karshiyeva Shaxnoza Turakulovna¹

¹ Navoiy davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.12.2024

Revised: 11.12.2024

Accepted: 12.12.2024

Ushbu maqolada ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish (inklyuziv ta'lim). Bola rivojlanishini kuzatish.

KALIT SO'ZLAR:

: Inklyuziv ta'lim, inklyuzivlik, autizm, simptom, nutq buzilishi, hissiyot, yuqori funksiyali autizm, past funksiyali autizm, ABA (Applied Behavioural Analysis).

KIRISH. Inklyuziv ta'lim – ta'lim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta'lim berish imkoniyatidir. Ushbu ta'lim insonning asosiy huquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Inklyuziya keng ma'noda ham, tor ma'noda ham qo'llaniladi. Keng ma'noda u urush qurboni bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar, qochoq bo'lgan bolalar, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari, ijtimoiy zaif oilalarning bolalari, iste'dodli bolalar, sog'lomligida muammolari bo'lgan bolalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Inklyuzivlik - inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan tarbiyalanuvchilarni ta'limda sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Autizm (grekcha «autos» – «o'zim» degan so'z) bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm

tashxisli bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Autizm ikki turga bo'linadi:

► **Yuqori funksiyali autizm.** Yuqori funksiyali autizm bilan yashaydigan odamlar odatdagi hayotda siz-u bizning oramizda yashay oladilar. Ular takrorlanuvchi harakatlar, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, odamlar bilan aloqaga kirishishdan ko'ra ma'lum turdagi yumushni yoqtirish kabi o'ziga xosliklarni namoyon qilishlari mumkin.

► **Past funksiyali autizm** esa ko'pincha yondosh sog'lik muammolari bilan kelib (aqliy rivojlanishning ortda qolishi, ba'zan hatto harakatlanish bilan bog'liq muammolar), ko'pincha doimiy parvarish va ko'makni talab qiladi.

Autizmning eng keng tarqalgan simptomlarini sanab o'tamiz.

- Bola odatda ismiga e'tibor bermaydi;
- Yolg'iz o'ynashni yoqtiradi;
- Ko'zga qarashdan qochadi;
- 12-14 oylik davrda ham oddiy murojaat nutqi (kel, ol, ber, qo'y kabi so'zlar, ishoralar)ni tushunmaydi;
- Nimanidir istaganda ko'rsatkich barmog'ini ishlatmaydi;
- Aylanuvchi jismlar, masalan, mashina baloniga boshqa o'yinchoqlardan ko'proq qiziqadi;
- Til imkoniyatlari jihatdan ortda qola boshlaydi;
- Boshini devorga, yerga yoki qo'li bilan uradi.

ASD tashxisli bolalarning ota-onalarining taxminan yarmi o'z farzandlarining atipik xatti-harakatlarini 18 oyligida va taxminan beshdan to'rt qismi 24 oyligida payqaydilar. Agar bola quyidagi muhim bosqichlardan birortasida mavjud talabga javob bermasa, bu „qo'shimcha baholashni davom ettirishning mutlaq belgisidir. Bunday tekshiruvga yo'naltirishni kechiktirish erta tashxis qo'yish va davolashni kechiktirishi bolaning uzoq muddatli natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

- 6 oylik bo'lganida ismiga reaksiya bildirmasa (yoki to'g'ridan-to'g'ri ko'z bilan qarash);
- 12 oylik bo'lganida ham birorta tovush chiqarmasa;

- 12 oylik bo'lguniga qadar imo-ishoralar ishlatmasa (qo'l bilan ko'rsatish, qo'l silkitib xayrlashish kabilari);
- 16 oylik bo'lganida birorta so'zdan foydalana olmasa;
- 24 oylik bo'lganida ikki so'zli (spontan, nafaqat exolalik) iboralarni qo'llay olmasa;
- Har qanday yoshda til yoki ijtimoiy ko'nikmalarni yo'qotsa.

Bolalarda autizmning sabablari.

- ▶ homiladorlik paytida homila mutatsiyalari;
- ▶ ba'zi vaktsinalarning oqibatlari (gipoteza inkor etib bo'lmaydigan tasdiqni topmagan);
- ▶ rivojlanish paytida homilaning va hayotning birinchi oylarida bolaning miyasi shikastlanishi ;
- ▶ axborot blokadası tufayli idrokning buzilishi;
- ▶ miya yarim sharlarining o'zaro ta'sirining buzilishi;
- ▶ tanadagi serotoninning noto'g'ri almashinuvi;
- ▶ xomilaning rivojlanish bosqichida xromosomada izdan chiqish holatlari;
- ▶ ona qornida rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan tug'ma nuqsonlar.
- ▶ genetik moyillik;

Bolalarda autizm uchun zarur bo'lgan davolanish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Autizmni davolash usullari.

- xulq-atvor terapiyasi dasturlari;
- rivojlanish modellari"dan foydalanish;
- logoped terapiyasi;
- ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish;
- mehnat terapiyasi;
- antidepressantlar;
- oila terapiyasi;
- talvasaga qarshi preparatlar.

Alohida ehtiyojli bolani rivojlantiruvchi ta'lim jarayoniga kiritishga qaratilgan xorijiy texnologiyalar orasida ABA (Applied Behavioural Analysis) amaliy tahlil yoki xulq-atvorni o'zgartirish kabi texnologiyalar keng qo'llaniladi. Bu texnologiya bolaga o'z ehtiyojlarini yanada adekvatroq ifodalashga o'rgatishni o'z ichiga oladi, asosan, individual shaklda xulq-atvor ko'nikmalari, o'zaro ta'sir ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

ABA usuli birinchi marta autizimli bolalar bilan ishlash uchun Los-Anjelesdagi Kaliforniya Universiteti doktori Ivar Lovas va uning hamkasblari tomonidan 1963 yilda qo'llangan. Bu usul har qanday xatti-harakat ayrim oqibatlarni keltirib chiqaradi, agar bola

oqibatlarini yoqtirsa, bu xatti-harakatni takrorlaydi, agar aksincha bo'lsa, buni takrorlamaydi, degan fikrga asoslangan edi. Bunday yondashuvda barcha murakkab ko'nikmalar, jumladan, nutq, ijodiy o'yin, ko'zga tik qarash va boshqalar kichik bloklarga o'harakatlarga bo'linadi. Har bir harakat bola bilan alohida-alohida o'rganiladi, keyin harakatlar umumlashtirilib, murakkab harakatlar hosil bo'ladi. Kattalar bolaga tashabbusni bermaydi, balki uning harakatlarini qattiq boshqarib turadi. To'g'ri harakatlar avtomatik ravishda mustahkamlanadi, noto'g'rilari qat'iy ravishda to'xtatiladi. Kerakli darajaga yetishish uchun turli xil ijobiy va salbiy imo-ishoralardan foydalaniladi. Qachonki bola bu harakatlarni o'zi mustaqil va vaziyatdan qat'iy nazar 80% darajada xatosiz bajarsa, berilgan vazifa kerakli darajaga yetganligini bildiradi.

ABA usuliga asoslangan ta'lim dasturi doirasida bola doimo kimgadir muhtoj bo'ladi, uning erkinligi va tashabbusi unga ta'lim berayotgan kattalarning tanlovi bilan chegaralangan bo'ladi. Har bir bola uchun rivojlanishning bosqichma-bosqich individual rejasi tuziladi. Bola bir vaqtning o'zida bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ko'nikmalarni egallaydi, pedagog tomonidan asta-sekin tizim murakkablashtirib boriladi va bosqichma-bosqich o'zlashtirib boriladi. ABA ning yakuniy maqsadi bolani mustaqil atrof-olamni o'zlashtirib borishidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyeva Sh.SH, Grosheva I.V., Mikailova. Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini individuallashtirish alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi U.T. -T-2020 34- bet.
2. *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, Fourth Edition, Text Revision (DSM-IV-TR)*. Washington, DC: American Psychiatric Publishing, 2000 — 70-bet
3. *Сниваковская А. С. Роль осознаваемых и неосознаваемых переживаний в формировании аутистических установок // Бессознательное / Отв. ред. А. С. Прангишвили, А. Е. Шерозия, Ф. В. Бассин. — Тбилиси, 1978*
4. R.SH.Shomahmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma
5. Nazarova D.A, Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). -T.: Innovasiya o'ziyo.2019.
6. Hamidova M.U. Maxsus pedagogika (Mutaxassislikka kirish). -T.: Fan va texnologiyalari, 2018.
7. Rasulovna, N. Z. (2024). Some Aspects of Organizing and Improving Students' Oral Speech at Non-Language Faculties. *Miasto Przyszłości*, 49, 373-375.
8. Nazirova, Z. (2023). METHODS OF MEASUREMENT OF CORNEA DIAMETER IN CHILDREN. *Science and innovation*, 2(D12), 482-485.

9. Nazirova, Z. (2023). IMPROVING THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 218-220.

10. Zilola, N. (2022). XORIJIY TILLARNI O 'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI (RUS TILI MISOLIDA). ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 1(1), 188-192.

11. Nazirova, Z. R. THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. Impact Factor: 4.9, 11.

12. Назирова, З. Р. (2021). THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ, (SPECIAL 1).

13. Rasulovna, N. Z. (2021, April). APPLICATION OF VIDEO MATERIALS IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF VETERINARY STUDENTS IN THE STUDY OF THE RUSSIAN LANGUAGE. In Archive of Conferences (Vol. 18, No. 1, pp. 37-38).

14. Bo'ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEKANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.

15. Nazim, B. R. (2022). O 'zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba'zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o 'rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov "Nido" dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.

16. Буронов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.

17. Bo'ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).

18. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ЕСЛИ НЕ ЖИТЬ СОВРЕМЕННОСТЬЮ-НЕЛЬЗЯ ПИСАТЬ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 570-572.

19. Suyarov, A. (2023). INNOVATION USULLAR-TALABALARINING TA'LIM VA KOGNITIV FAOLIYATINI TASHKIL ETIRISHNING YANGI TARZI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).

20. Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKAVIY XOSSALARI. TOHIKEHT-2021, 28.